

**O‘zbekiston Respublikasi**  
**Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi**  
**2024-2025 o‘quv yili**  
**I-chorak**  
**choraklik summativ baholash**  
**test savollari.**

**5-sinf**  
**1-variant**

1-25 matematika, 26-45 ona tili va adabiyoti.  
(B-bilish; Q-ko‘llash; M-mulohaza ga oid test savollari)

**O‘quvchi (F.I.SH).....**

**1. (B 1,3 ball)** So‘zlar bilan berilgan sonlarni raqamlar bilan yozing va to‘g‘ri javobni mos keltiring:

1. uch million to‘rt ming olti yuz	A. 3004006
2. uch million to‘rt ming oltmis	B. 3004060
3. uch million to‘rt ming olti	C. 3004066
	D. 3004600

- A) 1 – A; 2 – C; 3 – B.  
B) 1 – D; 2 – B; 3 – A.  
C) 1 – D; 2 – C; 3 – B.  
D) 1 – C; 2 – B; 3 – A.

**2. (B 1,3 ball)** Yulduzcha (\*) o‘rniga qo‘yish mumkin bo‘lgan eng katta va eng kichik raqamlar ko‘paytmasini toping.

$$817 * 319 > 8172319$$

- A) 36      B) 0      C) 9      D) 27

**3. (B 1,3 ball)** Hisoblang:  $789 \cdot 19$

- A) 14991    B) 19491    C) 14891    D) 14881

**4. (B 1,3 ball)** 319 sonining kubi qanday raqam bilan tugaydi?

- A) 1      B) 9      C) 2      D) 7

**5. (Q 1,6 ball)** ABC uchburchakda  $AB = 45$  cm,  $BC = 5$  dm,  $AC = 640$  mm bo'lsa, uning perimetrining toping.

- A) 1690 mm      B) 159 dm      C) 159 cm      D) 169 dm

**6. (Q 1,6 ball)** 8555 kg ni tonna, sentner va kilogrammlarda ifodalang. (t-tonna, q-sentner)

- A) 8 t 5 q 55 kg    B) 8 t 55 q 5 kg    C) 85 t 5 q 5 kg    D) 8 t 550 q 5 kg

**7. (Q 1,6 ball)** 42513 sonini o'nlar xonasigacha yaxlitlanganda  $a$ , yuzlar xonasigacha yaxlitlanganda esa  $b$  bo'lsin.  $a - b$  ning qiymatini toping.

- A) 10      B) 0      C) 90      D)  $a$  dan  $b$  ni ayirib bo'lmaydi

**8. (Q 1,6 ball)** Hisoblang:  $962 + 324 + 98 + 126$

- A) 1610      B) 1150      C) 1510      D) 1410

**9. (Q 1,6 ball)** ABCD to'rtburchakning perimetri 134 cm. AB tomon 39 cm, BC tomon AB tomondan 8 cm qisqa, lekin CD tomondan 2 cm uzun. AD tomon uzunligini toping.

- A) 33 cm    B) 35 cm    C) 31 cm    D) 24 cm

**10. (Q 1,6 ball)** Duradgor uch kunda buyurtmani bajardi. Birinchi kuni u 18 ta, ikkinchi kuni birinchi kundan  $a$  ta ko'p va uchinchi kuni esa ikkinchi kundan 4 ta kam stul yasadi. Duradgor uch kunda jami nechta stul yasaganini aniqlovchi harfli ifoda tuzing.

- A)  $58 + 2a$     B) 50    C)  $54 + 2a$     D)  $50 + 2a$

**11. (Q 1,6 ball)**  $(25 - 4b) \cdot (3b - 6)$  ifoda qiymatini  $b = 4$  bo'lganda hisoblang.

- A) 62      B) 44      C) 54      D) 72

**12. (Q 1,6 ball)** Uchta sonning yig'indisi 23000 ga teng. Sonlardan biri eng kichik to'rt xonali son, ikkinchisi eng kichik besh xonali son bilan eng katta to'rt xonali sonlarning yig'indisiga teng. Uchinchi sonni toping.

- A) 2001      B) 1003      C) 2011      D) 1991

**13. (Q 1,6 ball)** Bo'linuvchi 18 marta orttirilsa, bo'luvchi 2 marta orttirilsa, bo'linma qanday o'zgaradi?

- A) 2 marta ortadi;  
B) 36 marta ortadi;  
C) 20 marta ortadi;  
D) 9 marta ortadi;

**14. (Q 1,6 ball)** 282 soni 867714 sonidan necha marta kichik?

- A) 3077      B) 3487      C) 3087      D) 3047

**15. (Q 1,6 ball)** 463 sonini 19 ga bo'lganda qoldiq 7 ga teng bo'ldi. To'liqsiz bo'linmani toping.

- A) 24      B) 14      C) 12      D) 17

**16. (Q 1,6 ball)** Har bir harfiy ifodani soddalashtiring va har biriga mos javobni toping.

1. $a + 29 - 19$	A. $10 - a$
2. $89 - a - 79$	B. $a + 10$
3. $a - 9 - 19$	C. $a - 10$

- A) 1 – B; 2 – A; 3 – D.  
 B) 1 – B; 2 – A; 3 – C.  
 C) 1 – C; 2 – A; 3 – D.  
 D) 1 – C; 2 – B; 3 – D.

**17. (Q 1,6 ball)** Tenglamani yeching:

$$19y - 42 - 4y = 168$$

- A) 13      B) 17      C) 14      D) 23

**18. (Q 1,6 ball)** Hisoblang:

$$(8009 - 1215 : 27 + 12) : 4$$

- A) 1984    B) 1994    C) 1894    D) 1996

**19. (Q 1,6 ball)** Hisoblang:

$$(765 - 16224 : 78) \cdot 62$$

- A) 35434    B) 34534    C) 34354    D) 35344

**20. (Q 1,6 ball)** Sayohatchi bir shahardan ikkinchisiga bormoqchi. U oldin avtomobilda 69 km/h tezlik bilan 4 soat yo‘l bosdi. So‘ng piyoda 3 soat 5 km/h tezlik bilan yurdi. Shunda ikkinchi shahargacha yana 7 km yo‘l qoldi. Bu shaharlar orasidagi masofa qancha?

- A) 288 km    B) 289 km    C) 298 km    D) 284 km

**21. (Q 1,6 ball)** Hisoblang:

$$9^3 - 8^2 - 7^2$$

- A) 616      B) 606      C) 806      D) 3

**22. (Q 1,6 ball)** Sinflararo futbol musobaqasining jadvali berilgan ( $6\text{-A}:6\text{-B} \rightarrow 2:3$  kabi):

Sinf	6-A	6-B	6-D	6-E	6-F
6-A		2:3	1:2	0:0	2:1
6-B	3:2		5:0	0:1	4:2
6-D	2:1	0:5		1:1	2:0
6-E	0:0	1:0	1:1		2:2
6-F	1:2	2:4	0:2	2:2	

Qaysi jamoa 6 ochko to‘plagan? (Izoh: g‘alabaga 3 ochko, durangga 1 ochko, mag‘lubiyatga 0 ochko beriladi)

- A) 6-A      B) 6-E      C) 6-D      D) 6-B

**23. (M 2 ball)** A sonni B songa bo‘lganda, to‘liqsiz bo‘linma 4, qoldiq esa 3 ga teng bo‘ladi. A sonni C songa bo‘lganda, to‘liqsiz bo‘linma 3, qoldiq esa 8 ga teng bo‘ladi. Agar C – bir xonali son bo‘lsa,  $A + B - C$  ning qiymatini toping.

- A) 34      B) 52      C) 38      D) 35

**24. (M 2 ball)** Ikki xonali son berilgan. Bu ikki xonali sonning chap tomoniga, so‘ngra o‘ng tomoniga 8 raqami yozilib, ikkita son hosil qilindi. Hosil bo‘lgan bu ikkita uch xonali sonlar ayirmasi 351 ga teng bo‘ldi. Berilgan ikki xonali son uchun quyidagi mulohazalarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini aniqlang.

- 1) Bu ikki xonali son 50 dan kichik;
  - 2) Bu ikki xonali sonning raqamlari yig‘indisi bir xonali son bo‘ladi;
  - 3) Bu ikki xonali sonning raqamlari ko‘paytmasi juft son bo‘ladi;
- A) to‘g‘ri, noto‘g‘ri, to‘g‘ri  
B) noto‘g‘ri, to‘g‘ri, to‘g‘ri  
C) to‘g‘ri, noto‘g‘ri, noto‘g‘ri  
D) noto‘g‘ri, to‘g‘ri, noto‘g‘ri

**25. (M 2 ball)** 21 ta bir xil sig‘imli idishning 7 tasiga to‘ldirib, 7 tasiga yarim qilib asal solingan, 7 tasi esa bo‘sh. Uch nafar mijozga asalni va idishlarni teng bo‘lib berish kerak. Bunda har bir mijoz teng miqdorda asal va teng miqdorda idish olishi kerak. Mijozlar eng ko‘pi bilan nechta bo‘sh idishdan olishlari mumkin?

- A) 3 ta      B) 5 ta      C) 7 ta      D) 4 ta

**26. (B – 2,5)** Qaysi javobda to‘g‘ri yozilgan so‘z berilgan?

- A) xazil-mutoyiba    B) hol-ahvol    C) havotir    D) xazil

**27. (B – 2,5)** Nuqtalar o‘rnida bo‘g‘iz tovushi yoziladigan so‘zlarni toping.

- 1) xayr...ohlik;    2) xayr- e...son;    3) hoy-u ...avas;    4) mav...um;    5) ma...sus
- A) 1,2,3,4,5      B) 2,3,4      C) 1,3,5      D) 1,5

**28. (B – 2,5)** Qaysi so‘zda urg‘u oxirgi bo‘g‘inga tushadi?

- A) respublika      B) gazeta      C) hamma      D) kitob

**29. (Q – 4,5)** Tovush tushish hodisasi ro‘y bergen gapni aniqlang.

- A) Sog‘ yuray desang, ozoda yur.  
B) Kuzda ba’zi qushlar issiq o‘lkalarga uchib ketadi.  
C) Son-sanoqni bildiruvchi so‘zlar sanoq sonlar deyiladi  
D) Toshbaqa bo‘ynini kosasining ichiga tortib turaverdi.

**30. (Q – 4,5)** Oltovlon ola bo‘lsa, og‘zidagin oldirar. Ushbu gap haqidagi to‘g‘ri ma’lumotlarni toping.

1. Son so‘z turkumi ishtirok etgan.
2. Sifat so‘z turkumi ishtirok etgan.
3. Fe’l so‘z turkumi ishtirok etgan.
4. Tovush ortish hodisasi kuzatiladi.
5. Tovush tushish hodisasi kuzatiladi.

- A) 1,3,4      B) 1,2,3      C) 1,3,5      D) 2,3,5

**31. (Q – 4,5)** Tarkibi faqat ochiq bo‘g‘inlardan iborat bo‘lgan so‘zlarni toping.

1. Vazifa 2. Ashula 3. Marosim 4. Xazina 5. Dengiz 6. Mashina  
A) 1,2,4,6      B) 2,4,5,6      C) 2,4,6      D) 3,4,5

**32. (Q – 4,5)** Uzoq **judolikdan** so‘ng uchrashgan onaning sevinch yoshlarini suratga tushirgan bo‘lardim. Ushbu gapda ajratib ko‘rsatilgan so‘zni qaysi ma’nodoshi bilan almashtirib qo‘llash mumkin?

- A) ayriliq      B) voqealar      C) baxtsizlik      D) kunlar

**33. (Q – 4,5)** Moslashtiring.

1. Predmet nomini bildirgan so‘zlar	a. sekin, izlan
2. Belgi bildiruvchi so‘zlar	b. sanamoq, terakka
3. Tovush almashadi	c. shahrim, ayrim
4. Tovush tushadi	d. egalla, achchiq
5. Tovush ortadi	e. xayolparast, hazilkash
	g. kitob, qalam

- A) 1-e, 2-g, 3-b, 4-c, 5-d      B) 1-g, 2-e, 3-c, 4-b, 5-d  
C) 1-g, 2-e, 3-b, 4-c, 5-d      D) 1-g, 2-e, 3-b, 4-d, 5-c

**34. (Q – 4,5)** Tarkibi faqat jarangsiz undoshlardan iborat bo‘lgan so‘zni toping.

- A) mashaqqat      B) pista      C) tuzoq      D) fantastika

**35. (M – 5,5)** Matn mazmuniga mos to‘g‘ri mulohazani aniqlang.

### **Hayot qonuni**

Eski uyning devoriga qarg‘a kelib qo‘ndi. Uning tumshug‘ida yong‘oq bor edi. Uni oyoqlari bilan ushlab chaqmoqchi bo‘ldi, lekin yong‘oq uchib uyning devorlari orasiga tushdi. Qarg‘a o‘sha yerga tushib yong‘oqni qidira boshladи. Shunda yong‘oq past ovozda uyning devoriga:

– Ey devor, yalinaman, mani yashir, men anavi qarg‘aga yem bo‘lishni xohlamayman, – deb yolvordi. Devorning unga rahmi keldi va yong‘oq ustiga tuproqlardan to‘kib uni yashirdi. Qarg‘a yong‘oqni qidirishdan charchab, oxiri uchib ketdi.

Qish o‘tib bahor keldi. Devorning bag‘rida kichkina nihol paydo bo‘ldi. U kundan kunga o‘sib, ildiz otib, shox qo‘ya boshladи. Bir qancha vaqt o‘tgandan so‘ng esa uyning ichida baquvvat yong‘oq daraxti qad ko‘tardi. Uy esa butunlay nurab ketdi.

#### **Aziz o‘quvchi, hayot qonuni nima ekan?**

- A) Har qanday yangilik – unitilgan eskilik.  
B) Osmonga tupirsang, o‘zingga qaytadi.  
C) Inson hayotida eng ko‘p foyda beradigan narsa — umid.  
D) Har bir eski narsa yangisiga o‘z bag‘ridan joy beradi.

**36. (B – 2,5)** Hayot haqiqati bilan bog‘liq bo‘lib, xayoliy va hayotiy uydirmalar asosiga qurilgan, didaktik g‘oya tashuvchi og‘zaki hikoyalar qanday nomlanadi?

- A) Rivoyat      B) Afsona      C) Ertak      D) Hikoya

**37. (B – 2,5)** Qaysi qatorda lirik turga mansub janrlar berilgan?

- A) qit'a, g'azal, ruboij
- B) hikoya, qissa, ertak
- C) drama, tragediya, komediya
- D) askiya, latifa, afsona

**38. (B – 2,5)** Topishmoq yana qanday nomlar bilan yuritiladi?

- 1) matal; 2) topmacha; 3) chiston; 4) masal; 5) jumboq.
- A) 1, 2, 3, 4      B) 2, 3, 4      C) 2, 3, 4, 5      D) 1, 2, 3, 5

**39. (Q – 4,5)** Muvofiqlashtiring.

So‘z	Izoh
1. Fosiq. 2. Mo‘min. 3. Kofir.	a) ilmni o‘rganmaydi ham, o‘rgatmaydi ham. b) ilmni o‘zi ham o‘rganadi, boshqalarga ham o‘rgatadi va unga amal qiladi. c) ilmni o‘rganadi va o‘rgatadi, biroq amal qilmaydi. d) ilmni o‘rganadi, ammo undan faqat o‘z manfaati yo‘lida foydalanadi.

- A) 1-b, 2-c, 3-a
- B) 1-d, 2-a, 3-b
- C) 1-a, 2-c, 3-d
- D) 1-c, 2-b, 3-a

**40. (Q – 4,5)** Ayrim kishilar kichkinagina qiyinchilik oldida ham esankirab, ruhi cho‘kib qoladi, holbuki, boshqalar bundan o‘n chandon og‘ir mashaqqatlarni-da sabr-la yengadilar degan fikr ilgari surilgan masal nomini aniqlang.

- A) “Eshak bilan baqalar”      B) “Ustiga tuz ortilgan eshak”
- C) “Bo‘ri bilan laylak”      D) “Yovvoyi echkilar bilan cho‘pon”

**41. (Q – 4,5)** Masalchilik haqida keltirilgan qaysi ma‘lumotlar to‘g‘ri?

- 1. Masal – majoziy xarakterdagи hikoya bo‘lib, nasriy yoki she’riy shaklda yoziladi.
  - 2. Masalchilikning dastlabki namunalari sharq adabiyotida ham uchraydi.
  - 3. Lessing Germaniyada masalchilikni rivojlantirdi.
  - 4. Krilov Rossiyada massalchilik rivojiga hissa qo‘shti.
  - 5. Gellert Yunonistonning mashhur masalchisi.
- A) 1, 2, 3, 4      B) 1, 2, 4, 5      C) 1, 3, 4      D) 1, 3, 5

**42. (Q – 4,5)** Moslashtiring.

1. Jambil	a. Aslo qo‘rqmay o‘limdan, o‘ch olardi zolimdan
2. Darxon	b. Juda qadim zamonda ... tomonda qullar isyon qildilar
3. Tarlon	c. Qilichday o‘tkir edi, Rustam kabi zo‘r edi
4. Baxtiyor	d. Oy deganda yuzi bor, kun deganda ko‘zi bor
5. Oygul	e. Zindonda yotgan Oygulni qutqarishga jazm etadi

- A) 1-b, 2-e, 3-a, 4-c, 5-d      B) 1-a, 2-b, 3-e, 4-c, 5-d
- C) 1-b, 2-a, 3-e, 4-c, 5-d      D) 1-b, 2-a, 3-e, 4-d, 5-c

**43. (Q – 4,5)** “Ilm o‘rganmoq va ilm o‘rgatmoqning fazilati” haqidagi hadisda Alloh yuborgan hidoyatni mutakkabirlik qilib o‘zi ham o‘rganmaydi, o‘zgalarga ham ham o‘rgatmaydigan kofir kishilar qanday yerga qiyoslangan?

- A) Yomg‘irni o‘ziga singdiradigan, har xil o‘simliklar va ko‘katlarni o‘stiradigan unumdar yerga.
- B) Suvni o‘zida tutib qolmaydigan, ko‘katni ham ko‘kartirmaydigan tekis yerga.
- C) To‘plangan suvdan o‘ziga ham o‘zgalarga nafî tegmaydigan qatqaloq, qurg‘oq yerga.
- D) Suvni emmasdan, o‘zida to‘playdigan, o‘zi manfaat ko‘rmaydigan ammo boshqalar manfaatlanadigan qattiq yerga.

**44. (Q – 4,5)** Aka-uka Grimmlarga hamda “Botir tikuvchi” ertagiga xos bo‘lMAgan fikr keltirilgan qatorni aniqlang.

- A) Ertak qahramoni o‘ziga yangi kamar bichib, katta-katta harflar bilan unga: “Chiqqanda jahlim yomon, yettisin etgum gumdon!” deb yozib qo‘yadi.
- B) Grimmlar ertaklarining asosiy qahramonlari shoh va shahzodalar bo‘lib, bu “Botir tikuvchi” ertagida ham aks etgan.
- C) Grimmlar ertaklarning ko‘pchiligini bevosa ertak aytuvchilardan tinglab, ba’zilarini esa dehqonlar bilan suhbatlashib yozib olishgan.
- D) Ertakda qiroq tikuvchini changalzor o‘rmondagи ikki qaroqchini mag‘lub qilish uchun yuboradi.

**45. (M – 5,5)** “Botir tikuvchi” ertagiga xos xulosa keltirilgan javobni belgilang.

- A) Ayrim kishilar kichkinagina qiyinchilik oldida ham esankirab, ruhan cho‘kib qoladilar, holbuki, boshqalar bundan o‘n chandon mashaqqatlarni sabr ila yengadilar.
- B) Ayrim badfe‘l insonlar yomonlik qilmaganlarining o‘ziniyoq yaxshilik qilganga yo‘yadilar. Manmanlik qilib o‘zlaridan kuchsizlarni mensimaydilar.
- C) Agar inson bolasi to‘g‘riso‘z, halol, mard, topqir va tirishqoq bo‘lsa, unga hech qanday yovuz kuch bas kelolmaydi.
- D) Kimki o‘ziga yaxshilik qilganlarga yomonlik sog‘insa, u, albatta, jazosiz qolmaydi. Har bir qilingan yomonlik uchun esa jazo muqarrar.



PEDAGOGIK MAHORAT VA XALQARO  
BAHOLASH ILMIY-AMALIY  
**MARKAZI**